

28.01.2022 даги

"Термиз Нефтбаза" МЧЖ ва Кумқургон туман Ободонлаштириш бошқармаси ўртасида 79989380,00 сўм  
умумий суммага тузилган QBT/8 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб  
Шахсий газна ҳисобварак

110

100022860222147011503110001

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4252500			
Январь	79 989 380,00			79 989 380,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>79 989 380,00</b>			<b>79 989 380,00</b>

Жами 79989380,00 сўм

Етмиш тўққиз миллион тўққиз юз саксон тўққиз минг уч юз  
саксон сўм 00 тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 79989380,00 сўм ёки 100,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойда тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойдаги \_\_\_\_\_ % жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



(имзо)

Курбонов Шерқобил Эшбоевич

Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Нормуминов Алишер Хуррамович

Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

## **Neft mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risidagi**

### **QBT/8- sonli SHARTNOMA**

“28” yanvar 2022 y

Termiz shaxri.

Keyingi o'rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb ataluvchi “TERMIZ NEFT BAZASI” mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi Q.Akromov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi “O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi nomidan nizom asosida ish yurituvchi Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi raxbari Sh.Qurbonov ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### **1. SHARTNOMA MAZMUNI**

1.1. «Yetkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spesifikasiya orqali belgilab oladilar. Spesifikasiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Yetkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

#### **2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI**

2.1. Shartnomaning taxminiy summasi 79 989 380 so'mni tashkil qiladi.

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Yetkazib beruvchi» tomonidan Byudjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxta-to'qimachilik klasterlari, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ, “Toshshaxartransxizmat” AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'tgan chorakdagi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida shakllanadi. Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasidan shakllangan narxlarda shakllanadi.

2.3. «Yetkazib beruvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 15 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Yetkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

#### **3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

3.1. Neft mahsulotlari «Yetkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Yetkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek «Iste'molchi»tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Yetkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtosisternalar (Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Yetkazib beruvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

#### **4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI**

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Yetkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Yetkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

#### **5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI**

5.1. «Yetkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

#### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar

faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonunining 24-35 moddalari bo'yicha javobgar bo'ladilar.

6.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, «Iste'molchi» kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. Tovar moddiy boylikni etkazib berishni kechiktirganligi uchun «Ta'minotchi» kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

Shuningdek, Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

6.4. «Iste'molchi» tomonidan tovar moddiy boylik ishlatilishi jarayonida sodir etilgan qonun buzilish xollari uchun «Ta'minotchi» majburiyat olmaydi.

6.5 Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.6 Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama uzgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

## **7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

7.1. Mazkur shartnoma buyicha tomonlar shartlarni bajarmagan takdirida, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.

7.2. Tomonlar urtasada shartnomani tuzishda, bajarilishida, uzgartirish va bekor qilishda etkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogoxlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda Iqtisodiy Sud orqali hal qilinadi.

## **8. FORS-MAJOR HOLATLAR**

8.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## **9. BOSHA ShARTLAR**

9.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

9.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

9.4. Shartnomatomonlar o'rtasida imzolanganva agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgankundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

### «YETQAZIB BERUVCHI»

«TERMIZ NEFT BAZASI» M.Ch.J.

Qumqurgon filiali Toshkent sh

"UZSANOATKURILISHBANK"

ATB MFO 00432 STIR

200473847 X/R

22604000400556749701

Direktor:  Q. Akromov



### «ISTE'MOLCHI»

Qumqo'rg'on tuman Obodonlashtirish

boshqarmasi

Markaziy Bank Toshkent XKKM

Bank H/R

100022860222147011503110001

Bank MFO: 00014 STIR:

205610728

Raxbar:  Sh. Kurbonov

Moliya Vazirligi Gaznachiligi

23402000300100001010201122919



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA  
MG31871267**

**1. Loyihaning turi:**

Xo'jalik shartnomasi


**2. Loyihaning nomi:** Qumqo'rg'on tuman Qumqo'rg'on tuman  
Obodonlashtirish boshqarmasi bilan «TERMIZ NEFT BAZASI» MCHJ  
o'rtasida xo'jalik shartnomasini tuzish to'g'risida

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Qumqo'rg'on tuman Qumqo'rg'on tuman Qumqo'rg'on tuman  
Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga  
huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 28.01.2022 yilda kelib tushgan.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra **MG31871267**-sonli  
shartnoma loyihasi Qumqo'rg'on tuman Qumqo'rg'on tuman Obodonlashtirish  
boshqarmasi tomonidan kelib tushgan va amaldagi O'zbekiston Respublikasining  
amaldagi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Qumqo'rg'on tuman yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti:**



**J.A.Imomov**

**28.01.2022**



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"TERMIZ NEFT BAZASI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"TERMIZ NEFT BAZASI" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.02.2007

057

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Solliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

200473847

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, S.Termiziy ko'chasi 5-uy,

Guvohnoma:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, YAGONA DARCHA  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш давлат инспекцияси "Ўздавнефтгазинспекция"

# ЛИЦЕНЗИЯ

АА № 0065

Мазкур лицензия билан "TERMIZ NEFT BAZASI"  
(лицензия эгасининг тўлиқ номи)  
масъулияти чекланган жамияти

\_\_\_\_\_ га  
Сурхондарё вилояти, Термиз шаҳри, С.Термизий кўчаси, 5-уйда жойлашган нефть омбори ва жамиятга қарашли  
(рухсат этилаган фаолият тури)  
"Болдир", "Жарқўрғон", "Қумқўрғон", "Денов" ва "Олтинсой" филиаллари орқали автобензин, дизель  
ёнилғиси, мазут, печ ёнилғиси, нефть битуми, техник мойлар ва мойлаш материалларини сотиш билан  
шугулланишига рухсат этилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Сурхондарё вилояти,  
Термиз шаҳри, С.Термизий кўчаси, 5-уй


Лицензия эгасининг солиқ тўловчи сифатидаги идентификация рақами: 200 473 847

Лицензия берилган сана: 2018 й. 20 июль

Лицензиянинг амал қилиш муддати чекланмаган

Реестр бўйича тартиб рақами: № 7

Ваколатли шахс: Н. Агзамов  
(исми шарифи, фамилияси)

  
(имзоси)



Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси)

\_\_\_\_\_ (имзоси)

М.Ў.

Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси)

\_\_\_\_\_ (имзоси)

М.Ў.



1000 fil. 28 yanvar 2021  
 QAT/8 - sonli shartnomaga  
 ilova

### SPYESIFIKASIYA

Mahsulotning nomi, tashviri	O'lchov birligi	Narxi	Yillik miqdori	QQS 15%	QQS bilan Etkazib berish qiymati	Shu jumladan choraklar bo'yicha			
						I	II	III	IV
AI-80	tn.								
AI-91	tn.								
AI-92	tn.								
AI-95	tn.								
D/YO	tn.	110000	7,08	104333,8739	79889380				7,08
D/YO EKO	tn.								

«Etkazib beruvchi»

*[Signature]*

«Iste'molchi»

*[Signature]*

